



“OLMALIQ KMK”AJNING ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATINING TEXNIK-IQTISODIY TAHLILI

Ramatov Zafar Jumaniyozovich
TDTTrU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Olmaliq KMK” AJning 2019–2024 yillar davomidagi ishlab chiqarish faoliyati texnik-iqtisodiy tahlil qilingan. Maqolada korxonaning mis, oltin, polimetall va rux kabi strategik ahamiyatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi ko‘rsatkichlari tahlil etilib, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va xalqaro standartlarga muvofiq ish yuritish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar qamrab olingan. Har bir yildagi ishlab chiqarish dinamikasi va unga ta‘sir etuvchi omillar tahlil qilingan holda, korxonaning barqaror rivojlanishi va kelajakdagi istiqbolli yo‘nalishlari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Olmaliq KMK, mis ishlab chiqarish, oltin qazib olish, polimetall rudalar, rux ishlab chiqarish, texnik-iqtisodiy tahlil, ekologik xavfsizlik, ISO 14001, sanoat rivojlanishi


Annotation: This article provides a techno-economic analysis of “Olmaliq Mining and Metallurgical Combine” JSC’s production activities over the years 2019–2024. The analysis focuses on the company’s key production indicators in copper, gold, polymetallic ores, and zinc processing. It highlights the implementation of modern technologies, efforts toward ensuring environmental safety, and adherence to international standards. Annual production trends and influencing factors are examined to assess the company’s stability and potential development strategies for the future.

Keywords: Olmaliq MMC, copper production, gold mining, polymetallic ores, zinc output, techno-economic analysis, environmental safety, ISO 14001, industrial development.

“Olmaliq KMK” AJ ekologik va iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishida O‘zbekistondagi eng muhim sanoat korxonalaridan biri hisoblanadi. U rangli va nodir metallarni qazib olish va qayta ishlash sohasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, kombinatsiyaning ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan faoliyati O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasida asosiy hissa qo‘shmoqda. Ushbu korxona zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish va chiqindilarni minimallashtirish orqali atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirishga harakat qilmoqda.

Jahon miqyosida “Olmaliq KMK” AJning obro‘si uning ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilishga asoslangan. “Korxona xalqaro ekologik

standartlar, xususan, ISO-14001 talablariga muvofiq holda faoliyat yuritmoqda va bu nafaqat ichki, balki xalqaro bozorlar uchun ham uning raqobatbardoshligini oshirmoqda”²⁷.



2.1-rasm. Olmaliq KMK AJning asosiy ishlab chiqarish faoliyati mahsulotlari va samaradorligi (2019-2024 yy, foizda)²⁸

2019-yilda sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish nisbatan barqaror holatda bo‘lgan. Rasmda aks etgan ma’lumotlarga ko‘ra, mis rudasi qazib olish 101,6 darajani tashkil etgan bo‘lib, bu sohaga kiritilgan investitsiyalar va mavjud geologik resurslardan samarali foydalanilganidan dalolat beradi. Polimetall rudalarini qazib olish ham nisbatan yuqori – 102,3 foizga yetgan. Oltin tarkibli rudalarni qazib olish (99,2) va mis xom ashyosini qayta ishlash (100,3) segmentlari esa o‘tgan yilgi ishlab chiqarish darajasiga yaqin bo‘lgan. Mazkur yilda barcha tarmoqlar orasida nisbiy farqlar unchalik katta bo‘lmaganligi kuzatilib, bu ishlab chiqarish hajmlarining samarali va rejaga nuvofiq amalga oshirilganini bildiradi.

2020-yilda aksariyat tarmoqlarda sezilarli o‘shish kuzatilgan. Polimetall rudalarini qazib olish 104,9 ga yetgan bo‘lsa, oltin tarkibli rudalarni qazib olish 104,2 darajaga ko‘tarilgan. Bu geologik qidiruv ishlarining natijadorligi, qazib olish texnologiyalarining takomillashgani va talabning oshishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, mis xom ashyosini qayta ishlash (100,7) va mis ishlab chiqarish (105,5) segmentlari o‘shishda davom etgan. Ayniqsa, oltin tarkibli rudalarni qayta ishlash (106,1) sohasi yuqori natijalarga erishgan bo‘lib, bu oltin qazib olishning ortishi va uni qayta ishlash hajmining kengaygani bilan bog‘liq.

2021-yilda ishlab chiqarish hajmlarining barqaror o‘shishi kuzatilgan bo‘lsa-da, ayrim segmentlarda pasayishlar mavjud. Oltin tarkibli rudalarni qazib olish ko‘rsatkichi 95,7 ga tushib, ushbu resurs qazib olishning tabiiy kamayishi yoki konlarning ekspluatatsiya jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklar bilan izohlanishi mumkin. Boshqa tomondan, polimetall rudalarini qazib olish (103,1), mis ishlab chiqarish (105,5) va oltin tarkibli rudalarni qayta ishlash (106,6) segmentlari o‘shishda davom etgan. Bu o‘z navbatida ushbu sanoat tarmoqlarida iqtisodiy barqarorlik saqlanganini anglatadi.

²⁷ <https://agmk.uz/oz/menu/sustainability-reports>

²⁸ <https://agmk.uz/oz/analitik/>



2022-yilda sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlarida umumiy o'sish kuzatilgan. Polimetall rudalarini qazib olish 104,7 darajaga yetgan, oltin tarkibli rudalarni qazib olish 106,6 ko'rsatkichni qayd etgan. Ushbu davrda oltin sanoati o'zining barqaror rivojlanishini saqlab qolgan bo'lib, bu xalqaro bozorda qimmatbaho metallar segmentida narxlarning oshishi va investitsiyalar oqimining ko'payishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, mis rudasi qazib olish (100,5) va mis xom ashyosini qayta ishlash (100,7) segmentlarida keskin o'zgarishlar kuzatilmagan bo'lib, bu jarayonlarning muvozanatli rivojlanganidan dalolat beradi.

2023-yilda sanoat ishlab chiqarishida maksimal natijalarga erishilgan yillar qatoriga kiradi. Ayniqsa, mis ishlab chiqarish sektori 114,6 ko'rsatkich bilan eng yuqori darajaga yetgan. Bu global miqyosda misga bo'lgan talabning ortishi va ishlab chiqarish quvvatlarining maksimal darajada ishlaganidan dalolat beradi. Polimetall rudalarini qazib olish 103,1 darajada bo'lib, ushbu sektor ham nisbatan yaxshi rivojlangan. Shu bilan birga, rux ishlab chiqarish 111,6 ga yetib, ushbu segment ham iqtisodiy faollik jihatidan ijobiy natijalarga erishgan. Biroq, oltin tarkibli rudalarni qazib olish va qayta ishlash segmentlarida nisbatan sekinlashuv kuzatilgan.

2024-yilda ishlab chiqarish segmentlarida sezilarli pasayishlar kuzatilgan. Mis rudasi qazib olish (100), polimetall rudalarini qazib olish (100,1) va oltin tarkibli rudalarni qayta ishlash (100) barqaror darajada saqlangan bo'lsa-da, rux ishlab chiqarish 79 ga tushib ketgan. Ushbu holat ushbu tarmoqning iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelayotganini va ehtimoliy xomashyo ta'minoti bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Oltin qazib olish va qayta ishlash segmentlari ham nisbatan pastroq ko'rsatkichlarni qayd etgan. Bu esa iqtisodiy muhitning noaniqligi, global bozorlarda talabning o'zgarishi yoki geologik resurslardan foydalanish bo'yicha yuzaga kelgan qiyinchiliklar bilan izohlanishi mumkin.

2019-2024 yillar oralig'ida sanoat ishlab chiqarishining umumiy tendensiyalarini tahlil qilganda, ko'plab tarmoqlarda barqaror o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, 2024-yilda ayrim segmentlarda sezilarli pasayish qayd etilgan. Mis ishlab chiqarish va polimetall rudalarni qazib olish bo'yicha natijalar nisbatan barqaror saqlangan bo'lsa-da, rux ishlab chiqarishning keskin tushib ketishi ushbu sektorning muammolar oldida turganligini ko'rsatadi. Umuman olganda, ushbu davr ichida sanoat sektorida texnologik rivojlanish, global talabning o'zgarishi va investitsiyaviy omillar ishlab chiqarish hajmlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Kelajakda ushbu sanoat tarmoqlarining tiklanishi va barqaror rivojlanishi uchun innovatsion yechimlar, konchilik texnologiyalarini modernizatsiya qilish va xomashyo bazasining kengaytirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: 2019–2024 yillar davomida “Olmaliq KMK” AJning ishlab chiqarish faoliyatida umumiy barqaror o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, 2024 yilda ayrim tarmoqlarda pasayish qayd etilgan. Mis va polimetall rudalarni qayta ishlash sektorida ijobiy tendensiyalar saqlanib qolgan, biroq rux ishlab chiqarishda keskin pasayish yuz bergan. Bu holat tarmoqdagi muammolar, xomashyo yetishmovchiligi yoki bozordagi talab o'zgarishi bilan izohlanadi.





Kelgusida korxonaning rivojini ta'minlash uchun innovatsion yechimlar, texnologiyalarni modernizatsiya qilish va resurs bazasini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Butaboev M. T., Sadriddinov N. S., Rakhmanova E. Y. Green economy. world experience and features of development in Uzbekistan // Экономика: анализы и прогнозы. – 2020. – №. 5-6. – С. 148-153.
2. Eldor Tulyakov Every Initiative Launched from the Rostrum of the United Nations Serves to Improve the Image of Uzbekistan on the World Stage // Strategy of Uzbekistan. 2020. №3. URL:
3. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them // EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – С. 2321-6247.
4. Suyunova D.D. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS), Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 4 No 09. September 2023 ISSN:2660-5570.
5. Suyunova D. D. Corporate management of self-regulating organizations in the field of digital technology use. Ichthysody tarkkiet and tanlil ilmiy electronic journal, July 31, 2024. <https://e-ITT.uz/index.PHP/eitt/article/view/1472/1379>
6. Suyunova D. D. problems of corporate governance in the field of using digital technologies. (International Scientific and Practical Conference on Business and Entrepreneurship Development, International Scientific and Practical Conference, 2022) December 23
7. Instituto de Investigación de Recursos Biológicos Alexander von Humboldt (IAvH). Anfibios y Reptiles del Municipio de Cimitarra, Santander—Proyecto Santander BIO; IAvH: Bogotá, D.C., Colombia, 2018.
8. [https://www.iacgb.net/GLOBAL#:~:text=%5B16%5D%20Nicholas%20Georgescu%20Roegen,Economic%20Process%E2%80%9D%20\(1971\).](https://www.iacgb.net/GLOBAL#:~:text=%5B16%5D%20Nicholas%20Georgescu%20Roegen,Economic%20Process%E2%80%9D%20(1971).)